

DO'LTAXONA TABALDIRIG'DAGI UDUM

Begimqulova Zebiniso

Jizzax viloyati Zarbdor tumaniga qarashli

30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining

Musiqa fani o'qituvchisi

O'zbek millatining urf-odatlari va bir-biriga bo'lgan mehr-oqibatlari asrlar davomida O'zbek xalqini shakllantirib o'z milliyligini saqlab kelmoqda. O'zbek oilasi o'z urf-odatiyu, an'analari bilan tirikdir. Xalqimizning urf-odatlarining ko'pchiligi nikoh to'y, farzandning dunyoga kelishi ya'ni beshik to'y, sunnat to'ylaridan iborat.

O'zbek millatidek hech bir millat yo'qki, oilasiga fidoiy va vafodor bo'lgan. Shunday ekan ushbu gaplarga juda xam chuqur e'tibor beradigan bo'lsak bu so'zlar zamirida olam-olam ma'no bor. Biz yoshlar shundayin keksalarimizni hurmat qilib, qo'llab quvvatlash va o'zaro e'zozlash millatimizga xos fazilatdir.

Xar bir zamonda kishining qadr-qimmati uning aqli bilan o'lchanganligi kabi, shundayin qariyalarimiz borki, hattoki olimlarimiz tushunmaydigan sirsinoatlarni bilishadi. Ular xam kezi kelganda mana shunday kekxa, yoshi ulug'larimizdan so'rab, o'z nomzodlarini yuqori cho'qqilarga ko'tarishmoqda. Men bundayin bebaho kekxa qariyalarimizni oyga o'xshatgim keladi. Kechasi tunimizni oy yorug' qilganiday, qariyalarimizning bizgacha saqlab kelgan o'zbekona urf-odatlari hozirda xayotimizda juda xam qo'l kelmoqda. Masalan, adabiyotda biror ishga qo'l uradigan bo'lsak, birorta maqolami, hikoyami, rivoyatmi vaholanki u asar bo'lishidan qat'iy nazar biz albatta o'tmishga, tarixga suyangan holda ularni yaratamiz.

Misol tariqasida qishlog'imizda 104 ga kirgan Suymahol momo bilan o'tkazgan suhbat jarayonida, momodan juda ko'p ma'lumot olganligim va 80 yoshni qoralab qolgan Buvihol momoning qadimiy urf-odatlar to'g'risida va hozirgi kunda yo'qolib borayotgan, umuman xayotimizda qo'llanilmayotgan urf-odatlar to'g'risida, shuningdek bamisoli u kishining uyi muzey sifatida asr yuzini ko'rgan qadimiy liboslarni, gard yuqtirmay saqlab kelganligi, taqinchoqlarni to hozirgi kunga qadar asrab-avaylaganligi insonni hayratlantiradi. Milliylik ufurib turadigan liboslarimizning yo'q bo'lib ketganligi, shu o'zgarishlar evaziga o'z milliyligimizni, milliy urf-odatlarimizni unutib borayotganimiz rost emasmi. Hozirgi zamon modasi deyilib, qadimiy milliy liboslarimiz yangicha usulda, shu kechyu-kunduzda yana urfga kirmoqda. Yangi davr modasi "ABAYA" deb nom olgan go'zal va fusunkor milliy adras matolaridan tikilgan bu libos, qadimgi kampirlarimizning "DELAGAYI"ni yodga soladi. Qadimiy momolarning kiyimlaridan andoza olgan bu "ABAYA"ga qo'yiladigan jiyaklar libosga boshqacha ko'rk bag'shlab turadi.

Qariyalarimiz bor ekan, mana shunday urf-odatlarimiz yodga olinib turadi. Ular

butkul yo'qolmasligi uchun esa, biz yoshlar qayt etib keyingi avlodlarga qoldirishimiz biz uchun xam qarz, xam farzdir. Demak, o'sha milliy urf-odatlarimizdan bir-nechtasini, yuqorida aytib o'tgan momolardan eshitganimni hozir qoralamoqdaman. Kelinni uzatib kelish va o'g'il farzandli bo'lganidan so'ng unga sunnat to'y qilish jarayoni. Aslida kimlardir bu udumlarni yoqlamasdan eski sarqit deya past nazarda qarashi mumkin. Lekin aslida bu eski sarqit emasku, bu millatning bir belgisi hisoblanadi. Ahir har bir millatning o'z urf-odatlarini qadriyatlarini bor. Shunday ekan kelinni qadimda uzatib ketayotganda, do'ltaxonaga kiritgan (hozirda kichik-kichik uychalarni do'ltaxona deb yuritgan ekan, o'sha vaqtda bundayin koshona uylar bo'lmaganligi uchun bo'lak-bo'lak kichik uychalarga nisbatan aytilgan)da kelinni olib ketish uchun kuyov kelgan vaqtda, qariya bir kampirni bo'sag'a-tabaldirig'ga "KAMPIR O'LDI" deb yotqizib qo'yishar ekan. KUYOV bola kampirga birorta ko'nglini to'ldiruvchi hadya in'om etmaguncha kampir tirilmas ekan. Qachonki kampir kuyov bergan hadyaga kongli to'lgandagina kampir o'rnidan turar ekan va o'shandagina kelinni olib ketishga ruxsat berar ekan. Kuyov kelin uyiga kirganida to'g'iz-tovoq degan urf-odatlarimiz xam bo'ladi. Bu hozirda xam saqlab qolingan. Yuqorida aytilgan bu urf-odatlar hozirda umuman qo'llanilmayabdi. ASTA-SEKINLIK BILAN YO'Q BO'LIB BORMOQDA. Xo'sh kelinni xam uzatib olib keldik. Kampir momolarimiz kelinni o'rtaga olib, unga gajak qirqishgan. Qadimda qiz bola bilan kelinning faqqinimana shu qirqilgan gajak orqali ajrata olgan. Hozirchi, bilib bo'lmaydi, qaysi kelin, qaysi qiz. Xar ikkala toifadagilar qosh terishgan. O'sha kelinga qirqilgan gajak qachon yig'ilgan, toki o'g'il farzand ko'rmaguncha kelinning gajagi yig'ilmagan. Qachonki o'g'il farzand ko'rsa, sharoit tug'ilib farzandi uchun sunnat to'y qilgandagina, to'ydan oldin surpa soldi marosimi o'tkazilgan. Kelinchakni po'stak (qo'y terisidan tayyorlangan, iylangan, tayyorlangan, issiq ko'rpacha)ga o'tqazib, surpa yonida oq paxtani un ichiga solib, un xolatida boshiga qo'yib, oq ro'mol taqdirib, "ana xotin bo'lding, dono xotin bo'lding" iborasini ishlatib, gajagini momolar yig'ib qo'yishgan. Kelin bo'lib tushib, o'g'il farzand ko'rib gajagini yig'dirgan ayollarimizning o'z davrida mansabi yuqori bo'lgan. Ana o'zbekona ayollarimizning soddadilligi....

Endi ular dono xotin davriga o'tganligi bilan o'zlarini osmon chog'lab yurgan davrlari bo'lgan. Dastavval farzandlari uchtagacha, beshtagacha, yettitagacha qiz farzand bo'lsa, u ayolning xech ham gajagi yig'ilmagan, aksincha gajagini qirqib-qirqib yuraverishgan. Shunday ekan millatning ko'z gusi o'zining urf-oadati bilan belgilanar ekan.

Shukronasi bo'lmagan har bir millat zavolga yuz tutqusidir. Mustaqillikga qadam qo'ymasdan avval bizdagi milliylikni "eski sarqit" deya ko'pgina urf-odatlarimizni cheklab qo'yishdi. Hattoki "ko'pkari" to'ylarimizni ham ta'qiqlashgan edi. Aslida bizning "o'zbek" ekanligimizni bildiruvchi shu belgilar emasmi, nega endi yo'q

bo'lib ketishi kerak. Biz na o'zbek bo'la oldik va na rus bo'la oldik. Ikki daryo o'rtasiga qurilgan ko'prik ustida qolgan o'zbeklar najotkorini izlar edi. Bora-bora so'zlarimizni xam unutib qo'ydik. Toboldiriq, boqon ip, do'ltaxona, ovub, obiz mana shu kabi so'zlarni hozirgi yoshlarga aytsangiz qanday so'z ekanligini, qanday ma'noni anglatishini xam bilishmaydi. Shu holatda asta-sekin ketaversak, millatdan belgi xam qolmasligi mumkin edi. Bu ko'rinib turgan narsa. Allohingga beaded shukrlar bo'lsinkim, mustaqillikga erishganimizdan keyin, o'zimizning milliy urf-odatlarimizni tiklash, milliy qadriyatlarimizni ko'rsatish, eski ota-bobolarimiz qilgan udumlarni qilinishi, barcha-barchasi inobatga olindi. Mustaqillik evaziga barcha urf-odatlar, qadriyatlar va udumlarimiz qaytadan tiklandi. Go'zal urf-odatlarimiz umrboqiydir.

Demak, millatning tub manfaa'tlari, uning o'z o'tmishiga va kelajakka ishonchi millylikda o'z aksini topadi. O'zbek xalqi o'ziga baho berganligi uchun, o'z mavqe'ini tiklay olganligi uchun, o'tmish tarixini o'z olamiga mustahkam ustun qila oldi. Chunki, bu zamin yuzida o'zbek xalqidek ahloqli insonlar bo'lmasa kerak.....?

Xulosa qilib aytganda biz o'zligimizni, milliyligimizni va qadr-qimmatimizni yo'qotmasligimiz o'z qolimizda ekanligiga amin bo'ldik. Maqsadimiz ota-bobolarimiz bizga bergan har bir milliylik ufu'rib turuvchi saboqlarini va aytgan o'gitlarini xech qachon unitilmagaymiz. Tarix zarvaraqlariga o'chmas iz qilib muhrlagaymiz.

Momolardan so'rasak, urf-odatlar ko'p ekan,
Biz Yoshlar bilmaydigan qadriyatlar bor ekan.
Endi bilganimizni kelajakga yo'llaymiz,
Bu urf-odatlarimiz yo'qotmaymiz, qo'llaymiz.